



TURKIYA RESPUBLIKASI: TABIYATI, MADANIYATI VA AN'ANALARI

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasи o‘qituvchisi mayor

G‘aniev Farrux Taxirjanovich

tel: +998916117373

Elektron pochta: fargan77@bk.ru

Annotatsiya: – Ushbu maqolada Turkiya davlatining iqlimi, tabiat, infrastrukturasi, turistik sohasi, tarixiy va madaniy yodgorliklari, florasi hamda faunasi haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tabiat, madaniyat, an’ana, Flora, fauna, turistik, iqlim, infrastrukturasi, chegara, tarix, turizm, turistik, fenomeni, arxitektura, kalligrafiya, imperiya, kurdlar va qatag‘on.

Аннотация: – В этой статье мы расскажем о том, как Турция определяет климат, природу, инфраструктуру, туристическую сферу, историю и культурную архитектуру, флору и фауну Турции, а также о том, как она влияет на окружающую среду..

Ключевые слова: Природа, культура, традиции, Флора, фауна, туризм, климат, инфраструктура, чегара, тарих, туризм, феномен, архитектура, каллиграфия, империя, курдлар и катагон.

Turkiya Respublikasi Sharqiy va G‘arbiy sivilizatsiyalarning chegara bo‘lmish chorrahasida joylashgan. Mamlakatning iqlimi, tabiat, infrastrukturasi, turistik sohasi e’tiborga loyiq bo‘lib, sayohatchilar va boshqa mehmonlarni o‘ziga muntazam jalb etib keladi. Antaliya, Belek, Kemar, Side, Marmaris va boshqa hududlar nafaqat turistik infrastrukturani, balki tarixiy va madaniy yodgorliklarni ham o‘z ichiga oladi.

Mamlakat Osiyoning janubi-g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning hududi bir qancha dengizlar suvi tomonidan o‘rab olingan. 1941 yilda Turkiya hududi

topografiya, iqlim, flora, fauna, qishloq xo‘jaligi qoidalari talablaridan kelib chiqqan holda 7 ta katta hududga ajratilgan (tasniflangan). O‘rta Yer dengizi bo‘yi hududi; Egey dengizi bo‘yi hududi; Qora dengiz bo‘yi hududi; Marmar dengizi bo‘yi hududi; Sharqiy hudud; Markaziy hudud; Janubi-sharqiy hudud.

Mamlakat chegaralarining umumiyligi – 26.480 km, davlat hududining eng quyi nuqtasi O‘rta Yer dengizi qirg‘oqlari – 0 metr, eng katta ko‘l – 3,713 kv.km, Van ko‘li; eng yuqori nuqta – 5 166 metr, Ararat tog‘i.

Turkiyaning bir qancha iqlim tumanlarida joylashganligini hisobga olib, ularning rang-barangligini ta’kidlash joiz, ularning mo‘tadil xarakterga ega ekanligi esa turizm va sayohatchilar uchun juda qulay imkoniyatlarni yaratadi.

Bundan tashqari, ushbu mamlakatning ayni paytda ham Yevropa ham Osiyoda joylashganligini alohida ta’kidlash joiz. Turkiyaning bir yo‘la Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Eron, Suriya, Bolgariya, Gresiya va boshqa mamlakatlar bilan chegaralarga ega ekanligi ham diqqatga sazovordir.

Turkiya to‘g‘risida bir qancha qiziqarli ma’lumotlarni ham keltirish joiz:

Birinchidan, eng qadimgi aholi yashagan manzil eramizdan avvalgi 8000-7000 yillarga taalluqli.

Ikkinchidan, mamlakatdagi eng qadimgi diniy inshoat Avliyo Pyotr ibodatxonasi hisoblanadi.

Uchinchidan, mamlakat hududida dunyoning yettita mo‘jizalaridan biri bo‘lgan Galikarnas mavzoleyi hamda Artemida inshooti joylashganligi.

To‘rtinchidan, Nux alayxissalom bilan bog‘liq katta kema tarixi Ararat tog‘ida tugagan.

Beshinchidan, turklar Yevropani kahva ichishga o‘rgatganlar.

Oltinchidan, turklar Gollandiyaliklarni mashxur lolalarni parvarish qilishga o‘rgatganlar.

Yettinchidan, Istanbul ikkita qit‘a hududida joylashgan yagona shahardir.

Sakkizinchidan, turk oshxonasi va taomlari dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

To‘qqizinchidan, birinchi nasroniyalar rimliklar ta’qibidan xalos bo‘lish uchun aynan Turk zaminiga kelib jon saqlaganlar.

O‘ninchidan, turklar Yevropada qatag‘onlarga uchragan yahudiylargacha musulmon xalqlari ichida birinchilardan bo‘lib yordam qo‘lini cho‘zganlardan biridir (1492 yilda Sulton Boyazid II yahudiylarni Turkiyaga olib kelish uchun Usmoniyalar flotini Ispaniya va Portugaliya qirg‘oqlariga jo‘natgan).

Bundan tashqari, Turkiyaning o‘ziga xos fenomeni shundan iboratki, mamlakatda asrlar davomida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan islom dini va u bilan bog‘liq qadriyatlarga munosabat ijobiy tomonga o‘zgargan bir davrda Turkiya rahbariyati puxta o‘ylangan va mamlakatdagi barcha fuqarolar, siyosiy kuchlar va diniy konefessiyalar manfaatlarini himoya qila oladigan samarador siyosiy tizimni yaratishga erishib, hozirda ham saqlab qolishga muvaffaq bo‘lmoqda. Ushbu ishlar esa modernizatsiya jarayonlarining kuchayishi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi bilan bir qatorda olib borilmoqda.

Turkiyada e’tiqod qiluvchilar soni bo‘yicha birinchi din Islom dinidir. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Turkiya aholisining deyarli 99 foizi musulmonlardir. Aholining asosiy qismi sunniylar, ularning ko‘philigi asosan xanafiya mazhabiga e’tiqod qiladigan musulmonlar. Sharqiy Ona Do‘li, kurdlar hamda arablarning bir qismida shofiiylik mazxabi tarafdarlaridir. Ular mamlakat aholisini deyarli 15% ni tashkil etadilar, qolgan qismi shialar. Usmoniyalar hukmronligi davridan boshlab hanafiy mazhabi davlat mazhabi hisoblangan. Turkiyada 80 mingga yaqin masjid faoliyat ko‘rsatadi¹. Respublika hududida pravoslavlар, arman-grigorianlar, katoliklar va boshqa konfessiya vakillari ham istiqomat qiladi.

¹ Государственная политика России, Турции, Египта и Малайзии в сфере религии. Информационно-справочный материал. Отв. ред.: Т.Кастуганов, С.Мадиева, Д.Жуманов, А.Укенов. Астана: Научно-исследовательский и аналитический центр по вопросам религии, 2015. С. 24.

Turk zaminida dinlarning kelib chiqishi tarixiga nazar tashlasak, ushbu masalaning juda qadimgi tarixga ega ekanligiga amin bo‘lamiz. Ona do‘lida yashagan qabilalar qadimgi zamonda qabilaviy dinlarga berilgan bo‘lib (shamanlik va boshqalar), nasroniylikning ilk ko‘rinishlari sekin-astalik bilan Kichik Osiyoga kirib kela boshlagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu hudud nasroniy dinining vujudga kelib shakllanib borgan hududi hisoblanadi. Aynan shu hududda nasroniylik dunyo diniga aylanib, Yevropaga va Osiyoga tarqala boshlagan. 325 yilda Nikeya (zamonaviy Uzruk shahri) bo‘lib o‘tgan dunyo nasroniylarining birinchi anjumani (sobori) da ushbu dinning to‘liq maqomi ishlab chiqilgan edi. 330 yilda buyuk imperator Konstantin pravoslavieni Sharqiy Rim imperiyasining davlat dini deb, e’lon qilgan. Keyinchalik nasroniylik pravoslavie va Rim-katolik cherkoviga bo‘linib, keyinchalik protestantlik vujudga kelganidan keyin ham mazkur yo‘nalish vakillari turk zaminida bemalol yashaganlar.

Hozirgacha turk jamiyatida islom dini mavqeining muntazam oshib borishga qaramay, diniy tolerantlik va o‘zaro xurmat rishtalari juda kuchlidir. Pravoslavlarning diniy yetakchisi, dunyo patriarxining qarorgohi ham aynan Istanbul shahrida joylashgan.

Turkiya davlatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, jamiyatda musulmon bo‘limgan diniy konfessiyalarning davlat va jamiyatda tutgan o‘rni sezilarli bo‘lib, ularning vakillari asosan katta shaharlarda istiqomat qiladilar (Arman apostol cherkovi, greklar, yakobiylar, yahudiylar va boshqalar)².

Turkiyada yahudiylarning yashab kelayotgani bilan bog‘liq tarix ham juda qiziqarli. Eramizdan avvalgi IV-asrda Cardis shahri atrofida qadimgi yahudiylar yashagan manzilgoh bo‘lganiga arxeologik qazilmalar guvohlik bermoqda³. Vizantiya va Usmonlilar imperiyasi davrida mazkur jamoa katta xajmdagi muhtor huquqlar va vakolatlarga ega bo‘lganligini ham alohida ta’kidlash joiz. Fikrimizcha,

² Государственная политика России, Турции, Египта и Малайзии в сфере религии. Информационно-справочный материал. Отв. ред.: Т.Кастуганов, С.Мадиева, Д.Жуманов, А.Укенов. Астана: Научно-исследовательский и аналитический центр по вопросам религии, 2015. С. 26-27.

³ Карап: Северцев Н.И. История археологических исследований древних цивилизаций. М., 1954 г. С.120

ushbu huquqlar o'sha davrda Yevropada yashagan yahudiylarga nisbatan kengroq hajmda ekanligiga ham shubha yo'q. Yahudiylar Ispaniyadan va Portugaliyadan xaydab chiqarilganidan keyin Istanbul va uning atrofida yashay boshlaganlari ham tarixiy fakt. Zamonaviy Turkiyada hozirda 25000 dan ortiq yahudiylar istiqomat qiladi (asosan poytaxtda). E'tiborli tomoni shuki, Turkiya Respublikasi 1948 yilda Isroil davlati vujudga kelganidan so'ng uni birinchi bo'lib tan olgan musulmon davlati hisoblanadi.

Mamlakatning eng katta shaharlaridan biri Anqara Turkiya Respublikasining poytaxti bo'lib, mamlakatning ma'muriy, madaniy va iqtisodiy markazlaridan biridir, u yerda qariyb 4 millionga yaqin fuqarolar istiqomat qiladi hamda ularning asosiy qismini davlat xizmatchilari, talabalar, ilmiy va madaniy soha vakillari tashkil etadi.

Yagona rasmiy til turk tili bo'lib, unda mamlakat axolisining aksariyati (80 % ga yaqini) gaplashadi, qolgan axoli esa kurd va boshqa tillardan (15-20 %) foydalanadi. Ushbu ma'lumotlar qat'iy harakterga ega emas va turk aholisining horijga bordi-keldisi (mehnatkish migrantlar guruhi) ko'pligidan bir oz o'zgarib turadi⁴.

Insonlar sivilizatsiyasi tarixida turk madaniyati, tili, san'ati hamda adabiyoti juda yorqin iz qoldirgan. Asosan Saljuqiylar va Usmonlilar davrida shakllangan va rivojlangan madaniyat va u bilan bog'liq qadriyatlar Turkiyaning ko'pmillatli xalqi qiziqishlarini namoyon etib, turli diniy va madaniy yo'nalishlarning o'ziga xos majmui desak mubolag'a bo'lmaydi.

Turklar madaniyatining o'ziga xosligini ular tomonidan yaratilgan sheriyat durdonalari, san'at asarlari hamda xajviy to'plamlar orqali anglash mukin. Ushbu asarlar asrlar va yillar davomida og'izdan-og'izga o'tib, butun insoniyatning ajralmas qadriyatlar qatoridan joy olgan. Milliy adabiyot esa Islom dini, arab va

⁴ Қаранг: Современная Турция: история, экономика и политика. М., 2010. С.140.

forsiy adabiyotlar va madaniyatning sezilarli ta'siridan o'tib, boy falsaviy va folklor an'analarni mujassamlashtirgan.

XV-XVI – asrlar oralig'i turk madaniyati gullab-yashnagan davr hisoblanadi. O'sha davrda turk madaniyati hamda she'riyati forsiy madaniyat va she'riyatning katta ta'siri ostida bo'lган. Turk she'riyati ichida qasidalar va g'azallar ayniqsa katta e'tibor berilganligi o'sha davrdagi turk she'riyatini boshqalardan ajratib turadi.

Bu davrdagi shoirlardan Hamdiy Chalobiy (1448-1509 yillar), Ahmadposhsha (1435-1497 yillar) Xamid Najotiy (1460-1509 yillar), Mehri xotun (1467-1504 yillar), Rizvon Masixiy (1454-1502 yillar), Rahim Revoniy (1480-1524 yillar), Isoh Chalobiy (1486-1537 yillar), Rustam Lyamiy (1478-1531 yillar) va Poshsho Boqiy (1526-1599 yillar) larni ko'rsatib o'tish mumkin⁵.

XVII-XVIII asrlar oralig'ida turk adabiyotida satira va humoristik yo'naliш juda avj olgani ham e'tiborga loyiq. Ushbu yo'naliш namoyondalari orasida shoirlar Ahmad Vaysiy (1589-1628 yillar) va Abdulhamid Nefiy (1586-1635 yillar) larni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mazkur davrda ilm-fan ham katta rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Geografiya, tarih, falsafa, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va bibliografiya fanlari yo'naliши bo'yicha diqqatga sazovor bir qancha asarlar paydo bo'lган. Ushbu asrlarni yaratgan olimlardan Kotib Chalobiy (1607-1657 yillar), Xoji Sadreddin (1545-1599 yillar), Mustafo Saloniy (1560-1599 yillar), Mustafo Ali (1567-1599 yillar), Ibrohim Pachoviy (1598-1650 yillar) ni ta'kidlab o'tish mumkin.

Qurilish sohasida ham Turkiyada juda katta tarixiy tajribalar to'plangan. Turkiyada hozirgacha saqlanib qolgan tarixiy obidalarning aksariyati o'zining salobati va mahobatliligi bilan ajralib turadi. XVI – asrda yashab o'tgan mashhur arxitektor Sinon ko'pgina e'tiborga loyiq arxitektura inshootlarini qurgan, ular orasida masjidlarning o'zi 80 dan ortiq bo'lib, Istanbuldagi "Sulaymoniya" va Edirnadagi "Salimiya" masjidlari juda mashhurdir.

⁵ Карап: Всемирная история. Т.8. С.230-231.

Ushbu davrda Turkiyada kalligrafiya (yozuv) san'ati ham juda rivojlanganligini ta'kidlab o'tish lozim. Qur'oni Karim va boshqa muqaddas kitoblarning aynan turk musahhihlari tomonidan tayyorlangan nusxalari jahonda juda mashhurdir. Hozirgacha ularning Yevropa va dunyoning boshqa joylarida qiziquvchilari talayginadir.

Hozirgi vaqtda Turkiya madaniyati va adabiyoti G'arbiy dunyo, xususan Yevropaning sezilarli ta'sir ostiga tushgan. XX asrning 20 yillaridan boshlab muntazam ravishda mazkur soxaga tamomila yangi bo'lgan madaniy qadriyatlar kirib kelishi boshlangan. Aholi turmush tarzining yaxshilanishi, amalga oshirilgan tub islohotlar, yoziuvning lotin alifbosiga o'tkazilishi, fuqarolarning umumiy dunyoqarashi sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergani bilan bog'liq faktorlar ham madaniyat va san'at sohasiga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ham hozirgi Yevropa, Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda (xususan O'zbekistonda ham) turk madaniyati, musiqasi, san'ati, kinosi hamda turk folklori juda yaxshi qabul qilinadi va ayniqsa yoshlari orasida keng tarqalgan.

Turk arxitekturasi hamda qurilish sohasidagi qadriyatlar ham keng tarqalgan bo'lib, ular qo'shni davlatlarning shaharsozlik madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, Saljuqiyalar va Usmonlilar davrida turk arxitekturasi bosib olingan hudularga majburiy ravishda tarqatilgan hamda uzoq yillarga maxalliy arxitekturaning rivojlanish yo'naliishlarini belgilab bergen. O'z navbatida Turk arxitekturasi ham Vizantiya hamda Misr shaharsozlik madaniyatining katta ta'siriga uchraganligini alohida ta'kidlash joiz. Hozirda Turkiya Respublikasida aynan shu birlashgan madaniy qadriyatlarning jamlanganini katta shaharlarda mavjud bo'lgan madaniyat yodgorliklari orqali bilib olish mumkin.

Eng yangi davrda mavjud shaharsozlik madaniyati, umumiy madaniy qadriyatlar 1923 yilgi inqilobning katta ta'siri ostida rivojlanib, arxitektura, qurilish hamda san'at yo'naliishlarida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, nemis arxitekturasi va shaharsozlik qoidalarining katta ta'sir etganini alohida ta'kidlash joiz. O'tgan

asrning 20-30 yillaridan boshlab davlat muzeylar, turli ma'muriy binolar, xukumat qarorgohlari, mehmonhonalar, turli madaniyat o'chog'lari bo'lgan kinoteatrlarni qurishni rag'batlantira boshlagan. Bu vaqtida Turk arxitekturasining asosiy xususiyatlari modernizm, soddalik, qulaylik hamda funksionallik bo'lgan.

Turk musiqasi esa o'ziga xos ravishda rivojlanib, bir necha asrlik rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Ayniqsa, Usmonlilar davrida harbiy musiqa an'analari rivojlanib, harbiy yurishlarda keng foydalanilgan. Ushbu harbiy musiqa an'analari u yoki bu tarzda Yevropaning ko'zga ko'ringan kompozitorlari bo'lgan Mozart, Betxoven, Gaydn va boshqalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Inqilobdan keyin esa (1923 yil) Turk musiqasiga o'z navbatida Yevropa tajribasi ta'sir ko'rsatib, balet, opera, simfoniya kabi yangi yo'naliishlar vujudga kelgan. G'arbiy dunyoning katta ta'siri ostida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiyada pop musiqa, djaz, rok va xip-xop yo'naliishlari paydo bo'lgan.

Turkiyada teatr sa'atining rivojlanishi ham juda qiziqlarlidir. Teatr san'ati birinchi marta Usmonlilar saltanatida XVI asrda paydo bo'lgan. Unga Misr va Hindistonning o'xhash san'ati ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. XIX asrdan boshlab g'arb teatr san'atining tajribalari sekin-astalik bilan turk teatriga kirib kela boshlagan. 1860 yilda mashhur dramaturg Ibrohim Shinos birinchi marta teatr sahnasida zamonaviy asarni sahnalashtirib, turk dramaturgiyasiga asos solgan⁶.

Milliy kinematografiya 1986 yilda vujudga kelgan. 1914 yilda birinchi milliy badiiy film yaratilgan. 1932 yilda esa xususiy kinematograf paydo bo'lib, hozirda yiliga 300-400 ta badiiy filmlar yaratilmoqda. Ularning ko'pchiligi o'zbekistonlik teletomoshabinlarga yaxshi tanish.

Aholining ko'pchiligini musulmonlar tashkil etishini hisobga olib (qariyb 95 %), mavjud urf-odatlar va an'analarning asosan islomiy qadriyatlarni hisobga olganini aytish lozim. Chunki, islom dini jamiyat ijtimoiy hayotini belgilab bergen.

⁶ Қаранг: Всемирная история. Т.8. С.244-245.

Hozirda esa tashqi tazyiq ostida g‘arbcha kiyinish, o‘zini tutish hamda mentalitet an’analari turk jamiyatiga chuqur kirib kelmoqda.

Davlat darajasidagi bayramlarga kelsak, ularning ichida keng nishonlanadigan Ro‘za va Qurbon bayramlari (ularning birinchi kunlari), Respublika vujudga kelgan kun (29 oktyabr), Yangi yil (1 yanvar), Mustaqillik kuni (23 aprel), Sport va yoshlar kuni (19 may), Interventlar ustidan g‘alabaga erishilgan kun (23 aprel), Turkiya birinchi prezidentini xotirlash kuni (10 noyabr) kabi bayramlarni aytib o‘tsa bo‘ladi. Bundan tashqari, Shakar bayram ham katta doirada nishonlanadi⁷.

Turkiya oshxonasi (kulnariya) juda boy va turli yo‘nalishlarni qamrab olgani bois, sayyoohlar va mehmonlarda katta obro‘ga ega. Turkiya taomlari o‘zining oddiyligi, shirinligi, boy assortimentga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham turk taomlari Yevropa, Afrika, Osiyo va Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Qo‘y go‘shti eng asosiy maxsulot bo‘lib, aksar turk taomlarida ishlatiladi. Bundan tashqari, baliq go‘shtidan tayyorlangan mahsulotlar ham turistlar tomonidan e’zozlanadi.

Mamlakat hududi suv havzalari va zahiralariga juda boy. Eng katta daryolar bo‘lgan Shakaryo, Qizilirmoq va Yoshliirmoq Qora dengizga borib quyiladi. Ona do‘lining sharqiy qismida butun dunyoga mashhur Dajla (Tigr) va Frot (Efrot) daryolari boshlanadi. Turkiyada 300 dan ortiq tabiiy va 140 yaqin sun’iy ko‘llar mavjud. Ularning orasida eng kattasi Van ko‘li bo‘lib, Erchak, Xazar, Sapanja, Ulug‘bot, Izniy, Man’yas va Kuchukmajit ko‘llari ham nisbatan katta hududni qamrab oladi.

Turk adabiyoti va sheriysi XIX asr o‘rtalarigacha forsiy, arab va turkiy adabiyotning ta’siri ostida rivojlanib kelgan. Undan keyin Usmonlilar orasidan bo‘lgan yangicha o‘ylaydigan xukmdorlar mavjud voqelikni g‘arbiy madaniy an’analari bilan birlashtirishga harakat qilganlar.

⁷ Праздники и фестивали в Турции // <https://tripmydream.com/turkey/events>

1923 yildan keyin horijda katta obro‘-e’tiborga erishgan yozuvchilar, musiqachilar, ashulachilar, rassomlar guruhi paydo bo‘lgan. Ularning orasida Xolida Edip Anvar, Rashid Nuri Gyuntekin, Orxon Pamuk, Yoqub Qorausmon o‘g‘li, Mahmud Maqol, Yashar Kamol, Faqir Boyqurt va Yax’yo Kamol va boshqalar bor.

Zamonaviy adabiyot va san’at sohasida Orxan Valiy, Oktoy Rifat, Ilxon Berk, Fozil Xusni Daglarja, Nozim Xikmat va boshqalar yorqin iz qoldirganlar.

Anqara va Istanbulda xalq orasida mashhur bo‘lgan opera guruhlari faoliyat olib boradi, bundan tashqari, Istanbul milliy konservatoriysi va balet maktablari katta ijodiy faoliyatni amalga oshirib kelmoqda. Turkiyalik kompozitorlari orasida Yevropa, Amerika va Sharqda shuhrat qozongan Odnon Sayg‘un muntazam ravishda boy ijod namunalarini taqdim etib kelmoqda.

Turkiyada mavjud muzeylar orasida Usmonlilar davri madaniyati va tarixini targ‘ib etuvchi tashkilotlar talaygina bo‘lib, ular davlat muhofazasidadir. Istanbulda joylashgan turk va musulmon san’ati muzeyi diqqatga sazovor eksponatlari bilan butun dunyoga mashxur. Kutubxonalar deyarli har bir shaharda mavjud bo‘lib, ular orasida Anqarada joylashgan milliy kutubxonada 1 millionga yaqin kitoblar jamlangan.

Turklarning milliy mentaliteti o‘ziga xos bo‘lib, mehmono‘stlik, ochiqlik, boshqa din va madaniyat vakillariga katta xurmat ularni boshqa xalqlardan ajratib turadi.

Zamonaviy turk jamiyatida ijtimoiy tabaqalar orasida san’at va tibbiyot xodimlari, siyosatchilar hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan shaxslar katta obro‘-e’tiborga ega. Ular kamida bitta horijiy tilni biladilar, horijiy hamkasabali bilan yaxshi aloqalarni o‘rnatganlar hamda jamiyatda sezilarli mavqega egadirlar.

Amalga oshirilgan xizmat safarlarimiz vaqtida biz tomonimizdan o‘tkazilgan o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, turklar juda bilimga chanqoqlik bilan ajralib turadilar hamda jamiyatda ushbu bilimdonlik darajasi keyingi turmush tarzi va obro‘-e’tibor darajasini belgilab berishiga amin bo‘ldik. E’tiborli tomoni shuki,

zamonaviy turk yoshlari Yevropa udumlari hamda an'analri bilan bir qatorda mushtarak holda o'zlarining ota-onalaridan qolgan qadrdon urf-odatlarini ham esdan chiqarmaganlar. Bundan tashqari, yuqori malakali va o'z ishining ustasi bo'lgan mutaxassislar har doim jamiyatda salmoqli o'ringa egaliklari ularni boshqa toifadagi fuqarolardan ajratib turadi.

Turkiyada oilaviy qadriyatlar juda xurmat qilinadi, bir oila a'zolari bir-birlarini moliyaviy va iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlashga muntazam harakat qiladilar. Oilalarda qariyalarni xurmat qilish va ularning maslaxatlariga qulqoq tutish, ularni yoshlar tarbiyasiga jalb etish ham yuqori darajadaligi kishini hayron qoldiradi. Shuning uchun ham turk jamiyatida umumiy jinoyatchilik darajasi, xususan yoshlar jinoyatchiligi uncha keng tarqalmagan. Oilalarda erkaklarning maqomi ayollarning maqomiga qaraganda yuqoriroq, lekin bu holat bolalarni oilada otalari bilan bir qatorda onalarini ham bir xil darajada xurmat qilishlariga to'sqinlik qilmaydi.

Amaldagi Qonunchilik bo'yicha Turkiya Respublikasida ayollar va erkaklar bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lсалarda, asrlar davomida davom etib kelayotgan tartib-taomillarga asosan oilada erkak kishining shaxsi baland qo'yiladi.

Turklar bolajon xalq bo'lganligi uchun oilalarda ko'p bolalar bo'lishi tabiiy hol bo'lib, ularga bo'lgan munosabat juda ijobjiydir. Ayniqsa oilaning yoshi o'tgan a'zolari yosh avlodni tarbiyalash ishlariga juda katta xissa qo'shishlariga qoyil qolish kerak. Urf-odatlarga ko'ra o'g'il bolalari ko'p bo'lgan ota va onalarning jamiyatda ijtimoiy mavqeいi baland bo'lib, qarindosh-urug'lari orasida katta obro'ga egalar.

Turk jamiyatida xotin-qizlarning o'rni ham o'ziga xos bo'lganligi uchun ularning masalasiga alohida to'xtashga qaror qildik. Turk ayollarining 1923 yilgi inqilobdan keyin jamiyatdagi ijtimoiy mavqeいi keskin o'zgargan. Hozirda turk ayollarini jamiyatda juda katta mavqega ega ekanligi, ular orasida Bosh vazirlar (masalan, Tansu Chiller), vazirlar, siyosatchilar, olimlar, sud'yalar, mashhur

san’atkorlar, parlament deputatlari, tibbiyot xodimlari, sportsmenlar, yozuvchilar, professor-o‘qituvchilar borligini ham alohida ta’kidlash joiz.

Eng yangi davrda Turkiya Respublikasida ayollar sanoat va ishlab chiqarishning barcha sohalarida faoliyat yuritib, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida juda faol qatnashmoqda⁸.

Ilgari turk ayoli islom dini va qonun-qoidalari ta’siri asosida jamiyatda ayrim huquq va erkinliklardan mosuvo qilingan bo‘lsa, hozirda ular katta erkinliklarga egalar. Shunday bo‘lsa ham hozirgi vaqtida ayollar jamiyatda, oilada va ish jamoalarida (ayniqsa qishloq joylarda) erkaklar ustunligini tan olib, hayot kechiradilar. Odatga ko‘ra ular erkaklar orasidagi gaplarga qo‘shilmasligi, qo‘chada ulardan sag‘al orqaroqda harakat qilishlari, erkak kishidan ilgarilab ketmasliklari lozimdir.

Turk mehmondo‘stligiga kelganda shuni ta’kidlash joizki, ular o‘zaro muloqotda xushfellik, yoshni xurmat qilish, tabassum qilishga, etiket va an’analarga rioya etish ishlariga katta e’tibor beradilar. Turklar bir-birlarinikiga mehmonga borishni juda xush ko‘radilar. Zero ushbu jamiyatda mehmonlarga bo‘lgan munosabatga tasanno aytishdan boshqa iloji yo‘q.

Turk jamiyatida yahshi qo‘shnichilik an’analari ham juda rivojlangan. Ushbu qoidalari qo‘shnilar orasida kasallarni borib ko‘rish, bayramlar davrida ular holidan xabar olish, qo‘shnilarning to‘y va boshqa marosimlarida faol qatnashish orqali namoyon bo‘ladi.

Usmonlilar imperiyasi davridan odad bo‘lgan qahva ichish qoidalari hozirgacha mavjud bo‘lib, turklar asosan qahvaxonalarda o‘zlarini qiziqtirgan voqealar, siyosiy yoki ijtimoiy yangiliklarni muhokama qilish, oilaviy muammolar borasida maslahatlashish ishlarini amalga oshiradilar.

Mamlakatning florasi hamda faunasi juda boy bo‘lib, 2000 yilgacha o‘tkazilgan o‘rganishlar bo‘yicha Turkiyada o‘sadigan 9300 ga yaqin o‘simlik turlari ma’lum.

⁸ Қаранг: Современная история Турции в цифрах. М., 1999 г. С.45

Ushbu sonning ahamiyati, uni butun Yevropa bilan taqqoslasak, bu yerda 24% ko‘proq o‘simlik turlari mavjud (taxminan 11500). Turkiyadagi o‘simliklarning biologik xilma-xilligining eng muhim sababi bu iqlim va tuproq xilma-xilligi bilan birlashtirilgan endemiklar (faqat alohida olingan bir hududga xos bo‘lgan flora va fauna vakillari) ning nisbatan katta qismi bilan ta’riflanishidir⁹.

Tadqiqotlariga ko‘ra Turkiya o‘simlik turlarining deyarli uchdan bir qismi (30,6%) Kichik Osiyoda va unga qo‘shti Egey orollarida uchraydi. Taqqoslash uchun, Avstriyada tegishli ko‘rsatkich 1,56 foizni, Britaniya orollarida esa undan ham past darajaga ega.

Turk florasida endemizmning sabablaridan biri bu tog‘li hududdir va shu bilan birga, Anatoliyaning relefı juda parchalanganligidir. Aslida, Onado‘li tog‘lari mashhur Galapagos orollar kabi arxipelaglarga o‘xshaydi. Darwin davridan beri ma’lum bo‘lganki, orollar yoki tog‘lar bilan ajratilgan hududlar orasidagi geografik ajralgan holat muhim omil bo‘lib, natijada floraning juda xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Anadolu uchun bu taxmin endemiklarning Uludag yoki Ilgaz Dag kabi juda ajratilgan va nisbatan eski massivlarda o‘simliklarning konsentratsiyasini tushuntiradi, Erdjiyas Dag yoki Hasan Dag kabi yosh vulqonli hududlarda esa endemiklar ancha kam tarqalgan, negaki vulkanik jarayonlar bunday o‘simliklarni rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Turkiyaning iqlimi nihoyatda xilma-xil. Maydoni jihatidan jahon mamlakatlari orasida 37-o‘rinda turuvchi Turkiya iqlim jihatidan 7 ta mintaqaga ajralgan. Xususan Turkiyaning markazi qishi sovuq, qorli va yozi issiq bo‘lgan kontinental iqlimga ega. Mamlakatning g‘arbiy va janubiy sohillarida deyarli har doim iliq bo‘ladi – subtropik, O‘rta yer dengizi iqlimi mavjud. Mamlakatning shimoliy qirg‘og‘ida dengiz iqlimi nam va mo‘tadil. G‘arbiy yarmida

⁹ Увлекательная флора и фауна Турции // <https://www.propertyturkey.com/ru/blog-turkey/the-interesting-flora-and-fauna-of-turkey>

yiliga 1000 mm dan ortiq, sharqiy qismida yiliga o‘rtacha 2500 mm yog‘ingarchilik bo‘ladi¹⁰.

O‘simlik turlarning soniga ko‘ra Astragalus turkumi turk florasining eng yirik turidir, bu uning bahovo va quruq hududlarda saqlanishi bilan izohlanadi. Ushbu turdag'i o‘simliklarning tarqalishi inson faoliyati natijasida keskin oshdi. Ushbu turdag'i plastika juda yuqori. U atrof-muhit sharoitiga qarab, bir xil mayda o‘simliklardan kichik tikanli butalarga qadar turli xil shakllarga ega. Turk astragalining eng muvaffaqiyatli shakllaridan biri bu tog‘lar yuzasini tikonli yostiq shaklida qoplagan tikanli shakllardir.

Bunday tikanli yostiq nafaqat astragaldir. Konvergent evolyusiyasining yorqin namunasi – dukkakli ekin bo‘lgan tikonli yostiq. Ammo Acantholimon turkumidan ko‘plab tikanli yostiqlar ham mavjud. Hatto Asteraceae oilasining ba’zi vakillari ham rivojlangan. Turlar soni bo‘yicha ikkinchisi norichnikove, uchinchisi astralarga oid. Ushbu o‘zimliklar uchun Turkiya hududi, albatta, tarqalish markazidir. Dunyo bo‘ylab taxminan 360 turdan kamida 232 tasi Turkiyada uchraydi, ularning 79,4% Onado‘li endemikalaridir.

Pontin tog‘lari. Shimoliy, ko‘proq nam yonbag‘irlarda (Lazistondagi yog‘ingarchilik miqdori yiliga 2-3 ming mm gacha), eman, olxa keng bargli o‘rmonlari, aralash va ignabargli o‘rmonlar va o‘tloqlar bilan qoplangan, Pontin tog‘larining g‘arbiy qismida maquis tipidagi o‘simliklar mavjud. Janubiy yon bag‘irlarida tog‘ dashtlari va yarim cho‘llar tikanli bo‘talar va aralashgan o‘rmonlarning chakalaklari bilan almashib turadi.

Tavr. Janubiy, tik, yog‘ingarchilik kup bo‘ladigan tog‘ yon bag‘irlari juda namlangan (yiliga 1000 - 3000 mm yog‘ingarchilik, eng ko‘pi qishda kuzatiladi). 800-1000 m gacha, ular asosan maquslar bilan qoplangan (qulupnay, dafna, mirta, erika daraxti); balandroq – eman, sarv va yuqori zonada (2200-2400 m gacha) - qarag‘ay, archa, Livan sadrining o‘rmonlari. O‘rmonning yuqori chegarasida archa

¹⁰ Погода в Турции: температура и климат в Турции // <https://www.propertyturkey.com/ru/about-turkey/weather-in-turkey>

chakalakzorlar va o‘tloqlar joylashgan. Yiliga 300-400 mm yog‘ingarchilik bo‘ladigan nisbatan yumshoq shimoliy hududlar yon bag‘irlarida dasht o‘simpliklari, Torosning sharqiy qismida tikonli yostiqli butalar bilan tog‘ dashtlari va yarim cho‘llar mavjudligi ham e’tiborga loyiqdir.

Turkiya faunasi nihoyatda boy va xilma-xil. Bu mamlakat hududidagi tabiiy zonalarning xilma-xilligi bilan bog‘liq, chunki u yerda tog‘lar va cho‘llar, chiroyli dengiz qirg‘oqlari va zinch o‘rmonlar mavjud va ularda xilma hil hayvonlar bor.

Agar sut emizuvchilar haqida gapiradigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, Turkiyada juda ko‘p yirtqich hayvonlar yashaydi, ularning eng kattasi jigarrang ayiqdir. Bu erda bo‘ri va tulkilar ham uchraydi.

Umuman olganda, Turkiya florasi va faunasi o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Yaqin-yaqinlargacha turk jamiyatida ovchilik juda keng tarqaganligi bois, mamlakat xayvonat dunyosiga katta zarar yetkazilgan edi. Hozirda xukumatning sayi harakatlari bilan mamlakat hududida tabiiy qo‘riqxonalarning ulushi va hududi tinmay kupaymoqda.

Qonunchilikka kiritilgan o‘zgarishlarga ko‘ra mamlakatda 12 ta katta davlat muhofazasidagi qo‘riqxonalar tashkil etilgan bo‘lib, flora va faunaning juda katta qismi qonun muhofazasiga olingan.

Foydalingan adabiyotlar:

1. Rossiya, Turkiya, Misr va Malayziyaning din sohasidagi davlat siyosati. Axborot va ma’lumotnomma materiallari. Otv. red.: T.Kastuganov, S.Madieva, D.Jumanov, A.Ukenov. Astana: Diniy masalalar ilmiy tadqiqot va tahlil markazi, 2015. S. 24.
2. Rossiya, Turkiya, Misr va Malayziyaning din sohasidagi davlat siyosati. Axborot va ma’lumotnomma materiallari. Otv. red.: T.Kastuganov, S.Madieva, D.Jumanov, A.Ukenov. Astana: Diniy masalalar ilmiy tadqiqot va tahlil markazi, 2015. S. 26-27.

3. Seversev N.I. Istorya qadimgi sivilizatsiyalarning arxeologik tadqiqotlari. M., 1954 g. S.120
4. Zamonaviy Turkiya: Tarix, iqtisod va siyosat. M., 2010. S.140.
5. Jahon tarixi. T.8. S.230-231
6. Jahon tarixi. T.8. S.244-245.
7. Turkiyadagi bayramlar va festivallar
// <https://tripmydream.com/turkey/events>
8. Turkiyaning zamonaviy tarixi raqamlarda. M., 1999 g. S.45
9. Turkiyaning ajoyib flora va faunasi
// <https://www.propertyturkey.com/ru/blog-turkey/the-interesting-flora-and-fauna-of-turkey>
10. Turkiyadagi ob-havo: Turkiyadagi harorat va iqlim
// <https://www.propertyturkey.com/ru/about-turkey/weather-in-turkey>